

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**“JAHON SIVILIZATSIYASIDA BUXORONING O‘RNI: BOY
MEROS, BARQAROR RIVOJLANISH, YORQIN KELAJAK”
Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari**

**“РОЛЬ БУХАРЫ В МИРОВОЙ ЦИВИЛИЗАЦИИ: БОГАТОЕ
НАСЛЕДИЕ, УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ, СВЕТЛОЕ
БУДУЩЕЕ”
Международная научно-практическая конференция**

**“BUKHARA'S PLACE IN WORLD CIVILIZATION: RICH
HERITAGE, SUSTAINABLE DEVELOPMENT, BRIGHT
FUTURE”
International Scientific and Practical Conference**

II

Buxoro shahri, 9-10-sentabr, 2025-yil

Ilmiy-amaliy anjuman jahon sivilizatsiyasida Buxoroning tarixiy-madaniy va ilmiy-ma'rifiy merosini chuqur tadqiq etish, zamonaviy oliy ta'limda innovatsion yondashuvlar, fundamental va amaliy tadqiqotlar hamda xalqaro akademik hamkorlikni rivojlantirish orqali Buxoroning boy merosi bilan kelajak taraqqiyotini uyg'unlashtirishni ilmiy muhokama maydoniga aylantirishni maqsadida o'tkaziladi.

Ushbu to'plam keng ilmiy jamoatchilik, Buxoro va Buxoro davlat universitetining tarixi hamda turli soha ilmiy yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar bilan qiziquvchilar, izlanuvchilar, magistrantlar va talaba-yoshlarga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

O.X.Xamidov, Buxoro davlat universiteti rektori,
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Tahrir hay'ati va a'zolari :

K.A.Samiyev	– Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, f-m.f.d., professor
D.Sh.Yavmutov	– Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, i.f.d, professor
O'U. Rashidov	– Moliya - iqtisod ishlari bo'yicha prorektor
A.T.Jurayev	– Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor, i.f.n, dotsent
R.G'. Jumayev	– O'quv ishlari bo'yicha prorektor, s.f.f.d., professor
O.S.Qahhorov	– Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti boshlig'i, i.f.d, professor
G.T. Zaripov	– Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti bosh mutaxassisi, t.f.n., professor
N.I. Gaybullayeva	– BuxDU Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti bosh mutaxassisi, f.f.d., professor
N.Z. Sayfullayeva	– Tahririy-nashriyot bo'limi boshlig'i, p.f.f.d., dotsent
M.Sh. Shirinova	– Tahririy-nashriyot bo'limi muharriri, f.f.f.d., dotsent
A.A. Amonov	– Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i, s.f.f.d., dotsent
Z.S. Nurov	– Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i, i.f.f.d. dotsent
B.I. Adizov	– Rektor ijro apparati boshlig'i, i.f.f.d., dotsent
M.Z. Husenov	– Axborot texnologiyalari markazi direktori, p.f.f.d., dotsent
D.Z. Rajabov	– O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, f.f.d., professor,
A.H. Hamrayev	– BuxDU tuzilmasidagi Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi direktori
O.O. Jalolov	– Matbuot kotibi

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi:

N.Z. Sayfullayeva	– Tahririy-nashriyot bo'limi boshlig'i, p.f.f.d., dotsent
M.Sh. Shirinova	– Tahririy-nashriyot bo'limi muharriri, f.f.f.d., dotsent
	BuxDU tayanch doktorant (PhD) va doktorantlar (DSc) – (filologiya yo'nalishlari)

Mazkur to'plam Buxoro davlat universiteti Ilmiy kengashining 2025-yil, 30-avgust 1-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

Ilmiy-amaliy anjuman materiallarida yoritilgan tarixiy jarayonlar, ma'lumotlar, chiqarilgan xulosalar, manba va adabiyotlar uchun mualliflarning o'zlari mas'ul va javobgardirlar.

of expanding knowledge in political pragmatics is also improving theoretical models to handle deceptive and strategic implications in politically sensitive situations.

References:

1. K. Barriyah, "Do Politicians Use Implicature for Nonsense? An Analysis Of 2024 U.S Presidential Debate," *Linguistica*, 2025. <https://doi.org/10.24114/jalu.v15i1.64957>
2. M. Alavidze, "PRAGMATIC ANALYSIS OF STRATEGIC INFERENCE IN POLITICAL DISCOURSE: TRUMP AND ZELENSKY," *None*, 2025. <https://doi.org/10.17498/kdeniz.1678754>
3. S. Pratika, "Illocutionary Acts In The 2024 ABC News Presidential Debate Between Harris And Trump: A Pragmatic Study," *JURNALISTRENDI : JURNAL LINGUISTIK, SASTRA, DAN PENDIDIKAN*, 2025. <https://doi.org/10.51673/jurnalistrendi.v10i1.2378>
4. D. Karell, J. Sachs, "How Symbols Influence Social Media Discourse: An Embedding Regression Analysis of Trumps Return to Twitter," *None*, 2023. <https://doi.org/10.1177/23780231231212108>
5. M. Patrona, "Softballs for Hardballs: The congenial political interview on right-wing partisan TV news outlets," *None*, 2024. <https://doi.org/10.1177/14648849241228096>
6. I. F. L. Nuzulia, "Pragmatic Analysis of Flouting Maxim in Donald Trumps Interview with TIME in the Oval Office 2020," *None*, 2020. <https://doi.org/10.21462/jeltl.v5i3.443>
7. , "Relevance of Grices Theory of Conversation in Famous Testimonies since 2022," *None*, 2024. <https://doi.org/10.21608/aafu.2025.313504.1618>
8. R. Z. Adi, "Face Threatening Act In US Presidential Candidate First Debate Between Joe Biden And Donald Trump On Daily Mail And Youtubes Skynews 2020," *None*, 2022. <https://doi.org/10.53675/gist.v4i2.376>
9. S. Zeb, M. Ajmal, S. Alam, S. Banu, "Political Discourse Analysis of Donald Trumps Rhetoric: A Linguistic Study of Cognition and Discursivity," *World Journal of English Language*, 2024. <https://doi.org/10.5430/wjel.v14n5p207>
10. Rakhmatova, M. (2016). Discussion on values, culture, and languages. In *International Scientific and Practical Conference World science* (Vol. 2, No. 11, pp. 40-42). ROST..
11. Rakhmatova, M. M. (2019). Linguistic features of the concept "beauty" in English, Uzbek and Tajik national cultures. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 10(78), 764-770.
12. Rakhmatova, M. M. (2019). Aesthetic judgement: language as a mirror to reflect "Beauty". *Theoretical & Applied Science*, (10), 282-288.

O'ZBEK TILIDA SON KOMPONENTLI MAQOLLARNING TARIXIY ILDIZLARI VA SHAKLLANISH BOSQICHLARI

Samandarova Gulnoz Yarashovna

Buxoro davlat universiteti

*O'zbek tilshunosligi va jurnalistika
kafedrası dotsenti, f.f.d. (PhD)*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek xalq maqollarida son komponentlarining tarixiy ildizlari, shakllanish bosqichlari va ularning semantik, ramziy hamda madaniy yuki lingvokulturologik nuqtayi nazardan tahlil etilgan. Muallif maqollar tarkibidagi sonlar nafaqat miqdor ifodasi, balki xalq tafakkuri, diniy e'tiqodlar, mifologik tasavvurlar, ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarning timsoli sifatida xizmat qilganini asosli dalillar orqali ko'rsatadi. Tadqiqotda sonli maqollar turkiy xalqlarning og'zaki ijodi, yozma yodgorliklar va tarixiy bosqichlar bilan bog'liq holda o'rganilgan.

Kalit so'zlar: maqollar, son komponenti, lingvokulturologiya, semantika, timsol, qadriyat, og'zaki ijod, xalq tafakkuri.

Kirish. Son komponentli maqollar har bir xalq madaniyatida qadimdan shakllangan semantik, stilistik va konseptual qatlamlarni o'zida mujassam etgan og'zaki nutq namunalari. Ular nafaqat xalqning tafakkur tarzi va dunyoqarashini aks ettiradi, balki qadimiy e'tiqodlar, diniy-falsafiy tizimlar, urf-odatlar va ijtimoiy tuzilmalarning lingvistik ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi. Xususan, sonlar orqali tashkil topgan maqollar xalq og'zaki ijodining arxaiik qatlamlarini o'rganishda ishonchli lingvokulturologik material bo'lib xizmat qiladi. Bu holat dunyo tilshunosligida sonlarning paremiologik birliklardagi ishlatilish tarixini tadqiq etish orqali tasdiqlanmoqda.

Deyarli barcha qadimiy madaniyatlarda ayrim sonlar (masalan, 3, 7, 9, 12, 40) muqaddas yoki timsoliy ma'noga ega bo'lgan. Bu sonlar tartib, muvozanat, to'liqlik, baraka, sinov, poklanish kabi tushunchalar bilan bog'langan. Masalan, "uch" soni muvozanat va mukammallik timsoli sifatida ko'plab mifologik hikoyalarda,

jumladan, yunon, hind va turkiy mifologiyada ham uchraydi. Shu jihatdan qaralganda, sonlar semantik jihatdan faqat miqdor emas, balki tushuncha va qadriyatlar darajasiga ko'tarilgan.

Adabiyotlar tahlili. Sog'liq qadriyati xalq og'zaki ijodida, xususan maqollar tizimida, Bibliya, Qur'on, Tavrot kabi diniy matnlarda sonlar alohida semantik yuklama bilan ishlatiladi. Ular ko'pincha ibodat, jazolash, poklanish yoki sabr sinovi kabi tushunchalarni ifodalaydi. Masalan:

40 kunlik tozalash, 40 yil sahroda yurish (Bibliyada);

Yettinchi osmon, yetti kunlik marosim, bir gunoh – ikki ogohlantirish (Islomda);

Uch farishta, uch kunlik sinov, qirq kunlik motam kabi iboralar o'zbek, fors-tojik va turkiy xalqlarning diniy va ma'naviy qadriyatlari bilan uzviy bog'liqdir.

Turkiy xalqlar tarixida sonlar ijtimoiy tuzilma va boshqaruv tizimlarining belgisi bo'lgan. Masalan, *"qirq urug'", "to'qqiz bayroq", "yetti ajdod"* kabi iboralar bu tizimni anglatadi. **V.M.Jirmunskiy** o'z tadqiqotlarida turkiy maqollarni qadimiy ijtimoiy tizimlarning verbal izlari sifatida ko'rsatib, ularni tarixiy-lingvistik manba deb baholagan.

Sonlar qadimdan xalq og'zaki ijodida ritm, sintaktik barqarorlik va poetik parallelizmni hosil qiluvchi unsur sifatida xizmat qilgan. Shu bois ko'plab maqollar formulaviy tuzilishga ega bo'lib, unda sonlar matn kompozitsiyasining estetik va mantiqiy tuzilmasini tashkil etgan. Masalan: *"Birni bilgan – birni bilmas", "Yetti o'Ichab, bir kes"* kabi formulalar sonlar orqali barqaror, simmetrik struktura yaratgan.

Material va usul. Kognitiv lingvistika asoschisi **G. Lakoff** hamda **M. Johnson** tomonidan ta'kidlanishicha, sonlar inson ongi va tafakkurida abstrakt tushunchalarni konkretlashtiruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Maqollarda sonlar inson tajribasi asosida yaratilgan kognitiv metafora orqali ishlaydi. Masalan, *"ming og'iz gap", "bir ko'rgan – bilish, ikki ko'rgan – tanish"* kabi iboralar kognitiv jihatdan miqdor orqali sifati yoki holatni ifodalovchi modelga asoslanadi.

O'zbek xalq maqollari xalq tafakkurining ko'p asrlik tajribasi, madaniy merosi va ijtimoiy hayotining ifodasi sifatida shakllangan. Xususan, son komponentli maqollar qadimiy dunyoqarashni, diniy, ijtimoiy va marosimiy tushunchalarni mujassam etgan muhim paremiologik birliklar sirasiga kiradi. Ushbu maqollar xalq tafakkurida sonlarning semantik va simvolik yuklama olganligini ko'rsatadi. O'zbek xalq maqollari tarixan xalq tafakkurining serqatlam, qadimiy qatlamlariga borib taqaladi. Ayniqsa, son komponentli maqollar xalq og'zaki ijodining eng qadimiy va barqaror shakllaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Bu turdagi paremiologik birliklar o'zbek xalqining ijtimoiy, ma'naviy, diniy va iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutgan va sonlar orqali xalq dunyoqarashi, qadriyatlari, vaqt va miqdor tushunchalari ifodalangan.

Tarixiy jihatdan qaralganda, sonlarning xalq og'zaki ijodida ishlatilishi turkiy xalqlarning qadimiy e'tiqodlari, mifologik tasavvurlari va marosimiy amaliyotlari bilan chambarchas bog'liq. Masalan, qadimiy turkiy bitiklarda *"uch", "yetti", "to'qqiz", "qirq"* kabi sonlar muqaddas sonlar sifatida tilga olinadi. Bu sonlar nafaqat miqdoriy tushunchani, balki muayyan qadriyat, vaqt, sinov, poklanish, to'liqlik kabi ma'nolarni ham bildirgan.

Islom dini ta'siri kuchaygan davrda sonlarga bo'lgan munosabat yana-da kengayib, diniy va axloqiy konnotatsiyalar bilan boyigan. Masalan, *"qirq kunlik"* motam, *"yettilik"* marosimlar, *"bitta gunoh, ikkinchi ogohlantirish"* kabi iboralar o'zbek xalqining diniy marosimlarida muhim o'rin egallagan. Bu esa sonli maqollarda islomiy mentalitet bilan uyg'un semantik qatlam shakllanishiga sabab bo'lgan.

Shuningdek, o'zbek xalqining tarixiy-iqtisodiy hayotida shakllangan mehnat tajribasi, savdo-sotiq munosabatlari ham sonli ifodalar vositasida aks etgan. Sonlar ko'pincha mubolag'a, umumlashtirish, nisbiy baholash, vaqtni ifodalash vositasi sifatida xizmat qilgan. Masalan, *"bir so'm", "o'n yil", "ming og'iz gap"* kabi iboralar sonlarning real miqdordan tashqari, semantik yuklamaga ega ekanligini ko'rsatadi.

Tahlil va natijalar. Maqollarning ba'zilarida sonlar doimiy va barqaror semantik modelni ifodalasa (statik), ba'zilarida esa vaqt va harakatga bog'liq holda shakllanadi (dinamik). Bu esa sonli maqollarni tarixiy shakllanishi bilan bir qatorda, semantik struktura nuqtayi nazaridan ham tahlil qilish imkonini beradi.

O'zbek xalq maqollarida sonlar mazmun va shakl jihatidan muhim pragmatik yuklamaga ega bo'lib, xalq tafakkurining, mantiqiy fikrlashining, axloqiy-me'yoriy qadriyatlarining ifodachisidir. Sonlar nafaqat miqdorni ifodalash, balki ramziy, timsoliy, tashbih, kontrastli mazmunlar berishda ham xizmat qiladi. Ayniqsa, *bir, ikki, uch, yetti, to'qqiz, qirq, yetmish* kabi an'anaviy sonlar turli bosqichlarda xalq ijodining asosiy komponentlaridan biri sifatida shakllangan.

Turkiy xalqlarning og'zaki ijodi, xususan, sonlar ishtirokidagi maqollar xalq tafakkurining qadimiy qatlamlarini o'zida mujassam etgan muhim janrlardan biridir. Sonlar orqali ifodalangan fikrlar tarixiy, diniy, mifologik va ijtimoiy tafakkur taraqqiyotini aks ettiradi. Xalq og'zaki ijodining bosqichma-bosqich rivojlanishida sonlar turli davrlar mafkurasi, hayot tarzlari va axloqiy qadriyatlari bilan uyg'unlashib borgan. Miloddan avvalgi davrlarda sonli ifodalar ko'proq mifologik va diniy kontekstda qo'llanilgan bo'lsa (*"qirq kun", "yetmish pusht"*), o'rta asrlarga kelib bu birliklar abstrakt tushunchalar va ruhiy-ma'naviy tafakkur

ifodasiga aylangan (*“bir ko‘ngilni ovlash ming hajdan afzal”*). Jadidchilik davrida sonlar vositasida ilm-ma‘rifatga da‘vat, Sovet zamonida esa ideologik g‘oyalarni mustahkamlash vositasi sifatida xizmat qilgan. Mustaqillik davrida esa sonli maqollar milliy tafakkur va zamonaviy dunyoqarashning uyg‘un ifodachisi sifatida yana faol qo‘llanilmoqda. Shu tariqa, har bir tarixiy bosqichda sonli maqollar xalq ma‘naviyatining o‘ziga xos ifodasi bo‘lib xizmat qilgan. Shularni inobatga olgan holda maqollar tarixi tadriji quyidagi bosqichlarga bo‘lish mumkin:

1. Ilk xalq og‘zaki ijodi bosqichi (miloddan avvalgi va milodiy I–IX asrlar). Bu davrda sonlar mifologik, diniy va tabiat hodisalari bilan bog‘langan holda qo‘llanilgan. Masalan, *“Yetmish pushtdan duo olgan”*, *“Qirq kecha to‘y”* kabi iboralar zardushtiylilik, shamanizm va islomdan oldingi e‘tiqodlar bilan bog‘liq.

2. O‘rta asrlar davri (X–XV asrlar). Bu bosqichda yozma adabiyot bilan og‘zaki ijod uyg‘unlashdi. Maqollarda matematik-raqamli tafakkur chuqurlashdi. Masalan: *“Bir ko‘ngilni ovlash ming hajdan afzal”*, *“Ikki gapning birini ayt”* – bu maqollar sonning abstrakt tushunchalarga bog‘lanishini ko‘rsatadi.

3. Jadidchilik davri (XIX asr oxiri – XX asr boshi). Maqollarda sonlar orqali ilmga, ma‘rifatga, mehnatga undov kuchaydi. Masalan: *“Bir kunlik sadoqat, ming kunlik hurmat olib keladi.”*

4. Sovet davri (XX asr). Bu davrda siyosiy va ijtimoiy mazmundagi maqollar ko‘paydi. Sonlar zamonaviy mafkuraviy tushunchalarga yo‘naltirildi. Masalan, *“Bitta bosh yaxshi, ikki bosh undan ham yaxshi”* – jamoaviylik g‘oyasi targ‘ib etilgan.

5. Mustaqillik davri va bugungi kun (1991-yildan hozirgacha). An‘anaviy sonli maqollar qayta tiklandi, milliy qadriyatlar va zamonaviylik uyg‘unligi aks ettirildi. Masalan: *“Yuz bor eshitgandan, bir bor ko‘rgan afzal”* kabi maqollar faol ishlatilmoqda.

Bu bosqichlar orqali sonli maqollar xalq tafakkurining semantik qatlamlariga kirib borish imkonini beradi.

Tarixiy manbalarda, xususan, qadimgi turkiy bitiklarda sonlar muhim konsept sifatida ishlatilgan. Masalan, *“Bilga xoqon bitigi”*da *“uch”*, *“yetti”*, *“to‘qqiz”*, *“qirq”* kabi sonlar davlat boshqaruvi, urug‘-aymoq tartibi va marosimlar kontekstida qayd etiladi.

Xulosa. Son komponentli maqollar dastlab og‘zaki nutq muhitida shakllangan bo‘lib, ular xalq og‘zaki ijodi namunalari tarzida avloddan avlodga og‘zaki tarzda o‘tgan. Bu maqollar sonlar orqali tasvirning kuchaytirilishi, umumlashtirish yoki aniq miqdoriy ifodani berish kabi vazifalarni bajaradi. Shu sababli, ular o‘zbek xalqining dunyoqarashi va hayotiy tajribasi asosida takomillashgan.

Ilk yozma yodgorliklarda, xususan qadimgi turkiy bitiklarda sonlar bilan bog‘liq iboralar ko‘plab uchraydi. Talat Tekinning fikricha, turk tilidagi ko‘plab til birliklarida sonlar faqat miqdor emas, balki semantik urg‘u beruvchi vosita sifatida ham xizmat qilgan. Demak, son komponentli maqollar turkiy tillarning qadimiy taraqqiyot bosqichlarida ham mavjud bo‘lib, ular til rivoji jarayonida turli bosqichlarni bosib o‘tgan.

Xususan, o‘rta asr turkiy adabiyotida ham bunday maqollarning uchrashi kuzatiladi. Bu maqollar o‘sha davrda ham estetik va didaktik vosita sifatida xizmat qilgan. Masalan, Alisher Navoiyning asarlarida *“Yetmish yildan beri...”* kabi iboralar son komponentining poetik uslubda ishlatilganini ko‘rsatadi. Bu esa bunday birliklarning nafaqat og‘zaki nutqda, balki yozma adabiy til shakllanishida ham faol qo‘llanilganidan darak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dundes, A. Interpreting Folklore. – Bloomington: Indiana University Press, 1980. – pp. 112–118.
2. Жирмунский В.М. Тюркский героический эпос. – Л.: Наука, 1974. – С. 97–100.
3. Lakoff, G., & Johnson, M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – pp. 45–47.
4. Жамолиддинов М. Ўзбек халқ мақолларининг тарихи ва поэтикаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – Б. 38–44.
5. Tekin, Talat. A Grammar of Orkhon Turkic. – Indiana University, 1968. – pp. 134–142.
6. Bozorov Z.A International scientific and practical conference “Modern psychology and pedagogy: problems and solutions” “Imperial College London” 2021-2022. 165-169 б.
7. Bozorov Z.A. Essence, structure and functions of civil culture. International engineering journal for research & development. Published in Volume 6 Special Issue, January 2021 of IEJRD E-ISSN: 2349-0721 , Peer Reviewed & Referred Journal.
8. Bozorova G. Formation of abbreviations in medical terminology in uzbek language //Центральноазиатский журнал образования и инноваций. – 2024. – Т. 3. – №. 3. – С. 86-89.
9. Samandarova G. Y. Fundamentals of folk proverbs formed on the basis of the lexical-spiritual group of insects. Current research journal of philological sciences, 2 (05), 39–42. – 2021.

10. Samandarova, G. Y. (2023). Basis of the lexical sentence group "insect" in the form of a compound sentence. *International scientific conference "innovative trends in science, practice and education"*, 2(4), 59–67. Retrieved from <http://academicsresearch.ru/index.php/iscitspe/article/view/1493>
11. Bozorov Z. A. "Exceptional role of motives and needs within the formation process of civic culture in students' community." *Journal of Advanced Zoology* 44 (2023): 3236-3244. <https://jazindia.com/index.php/jaz/article/view/1595>
12. Ashurovich, Bozorov Zayniddin. "Great Oriental Intellectuals about Civil Culture." *Web of Scholars: Multidimensional Research Journal* 2 (2023): 21-24. <https://innosci.org/wos/article/view/968>
13. Samandarova G.Y., Yusupova A.Sh. Specific characteristics of paremas formed on the basis of "Insect" LMG in a simple sentences // *Best journal of innovation in science, research and development. Volume 2 No 6 (Jun 2023). ISSN: 2835-3579 .(Impact factor: SJIF=9.1)*
14. Samandarova G.Y. Sodda gap ko'rinishidagi "hasharot" lug'aviy ma'no guruhlari asosida shakllangan paremalarning o'ziga xos xususiyatlari // *Scientific reports of Bukhara state university. 2023/1 (84). –B. 161-165.*

SO'ZNING KO'CHMA MA'NODA QO'LLANISHI

Yusupova Dildora Yunus qizi

*Buxoro davlat universiteti o'zbek tilshunosligi
va jurnalistika kafedrası doktoranti,
f.f.f.d. (PhD), dotsent*

Annotasiya. *Til o'ziga xos murakkab va, ayni paytda, bunyodkor sistema ekanligi ma'lum. Tilning yuzaga chiqishi, voqelanishi bo'lgan nutq ham o'ziga xos cheksiz bunyodkorliklarga ega qurilma bo'lib, til imkoniyatlarini nutqiy sharoitga mos tarzda namoyon etadi. O'zaro assotsiativ xususiyatga egalik til va nutqda aynan bir xil emas. Lisoniy birliklar, masalan, leksemalar hamisha bir-biriga ishora qilib, bir-birini eslatib turuvchi paradigmatic, sintagmatic ba'zan ierarxik munosabatlarga ega. Nutqiy polisemantik so'z har bir ma'nosi bilan alohida qurshov hosil qiladi va ular leksemalashib tilda muayyan paradigmalardan joy oladi. Bu hodisa, aksariyat paytlarda, biror so'zning ko'chma ma'noda qo'llanishi bilan bog'liq bo'ladi.*

Kalit so'zlar: *ko'chma ma'no, poetik nutq, polisemiya, metafora, metonimiya, sinekdoxa, individual nutq*

Leksikologiyada monosemantik va polisemantik so'zlar farqlanadi. Nazariy leksikologiya nuqtayi nazaridan yondashsak, nutqda qo'llangan so'z har doim monosemantik bo'ladi. Chunki so'z leksemaning bir martalik ko'rinishi bo'lib, u leksemaga zid ravishda betakrorlik tabiatiga ega. Jamiyat taraqqiy etishi bilan nutqiy so'zlar o'zi ifodalagan leksik ma'no bilan doimiy aloqador hosila nutqiy ma'nolarni yuzaga chiqaraveradi. Natijada monosemantik so'z polisemantik so'zlarga aylanib boradi.

Polisemantik so'z har bir ma'nosi bilan alohida qurshov hosil qiladi. Ular leksemalashib tilda alohida paradigmalarda joylashadi. Buni taniqli o'zbek shoirasi Halima Xudoyberdiyeva she'rlaridan olingan misollarda kuzatamiz. Shoirasi Halima Xudoyberdiyeva so'zning lug'aviy ma'nolarini turfa jilvalarda aks ettira olgan, mag'zi to'q she'rlari bilan o'zbek kitobxonining qalbidan joy ola bilgan, o'ziga xos, betakror ijodkor. U hozirgi o'zbek tilining leksik-semantik xususiyatlariga tayangan holda yangicha tashbehtar yaratishga erishgan. Shoirasi ijtimoiy-siyosiy mavzularda bo'ladimi, lirik yoki intim mavzularda qalam tebratadimi, go'zal o'xshatishlardan ko'proq foydalanadi. Shoirasi tuyg'ular tasvirini yangi-yangi shakllarda berar ekan, shakl va mazmun mutanosibligiga erishadi; haqiqatni aytish, adolat tantanasini ulug'lash uchun tinmay izlanadi; shuning barobarida barchamizga tanish so'zlar zimmasiga yangi va chuqur ma'nolar yuklaydiki, bu uning haqiqiy iste'dod egasi ekanligini dalillayveradi.

Misollarga murojaat qilamiz. Shoirasi "Ayol o'tib borar..." she'rida shunday yozadi:

Sen so'rama. Men ham aytmayin,

Kuragimni(ng) singanini qars.

Shovqin solma, men uyg'otmayin,

Yuragimda yotar bir yo'lbars... [5]

H.Xudoyberdiyeva "Yuragimda yotar bir yo'lbars" misrasi orqali go'zal tashbeh yaratadi.

Mutaxassislar tomonidan "dunyo ayollariga bag'ishlov" deb e'tirof etilgan shoiraning "Ayol" she'rida ham "Sen daryosan...", "Unamading, ayol o'zi ters "xalq", dedilar", "Icholmagach yuz o'girib sho'r, talx, dedilar" kabi o'nlab misralarida ham go'zal tashbehtar bor. Ijodkorning she'riy tug'yonlarida so'zlar tabiatidagi shartlilik, "kosa tagidagi nimkosa" tarzida ifodalanadigan ko'chma ma'nodorlik ustuvorlik qiladi. Yuqoridagi misralar ma'no ifodasiga ko'ra ijtimoiy-falsafiy, badiiy-estetik ahamiyat kasb etadi.

P.Ў. Хўжаниязов	Хоразм вилояти шароитида лазерли ер текислагичларда текисланган майдонларда шўр ювиш технологиясининг самарадорлиги	199
X.A. Idrisov	Soyaning yangi navlarini yaratish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar tahlili	204
5-SHO'BA. FILOLOGIYANING ZAMONAVIY MUAMMOLARI, GUMANITAR VA IJTIMOIIY-SIYOSIY FANLARNI O'QITISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR		
D.S. O'rayeva, D.Z. Rajabov	Buxoro folklorshunosligi: kecha va bugun	207
B.M. Jo'rayeva, A.A. Kilichev	Hozirgi o'zbek va rus tillarida maqollar qo'llanilishi va maqomi	210
H.O. Safarova	XX asr boshlari Buxoro adabiy harakatchiligida nasrning shakllanishi	212
Q.R. To'xсанov	Mumtoz adabiyotda xalq hikoyatlarining badiiy talqini: rumiy, attor va mashrab misolida	214
D.X. Quvvatova	Shodmon Sulaymon ijodida vatan madhi	218
B.C. Жамилова	Бухоро биздандир, биз Бухородан!	221
D.N. Yuldasheva	Sukut – nolisoniy birlikning kognitiv xususiyatlari	225
N.Z. Bekova	“Ayn ul-hayot” qasidasida me'roj kechasi tasviri	228
Z.Q. Amonova	Mustaqillik bergan imkoniyatlar yoxud Navoiy asarlarini manbalar asosida o'rganish	230
Ш.Н. Ахмедова, Қ.Қахрамон	Адабий танкид методологияси ҳақида баъзи мулоҳазалар	232
A.R. Axmedov	O'zbek tili unlilar tizimida “o”lanish	236
B.E. Kilichev	Filologiyaning zamonaviy muammolari: toponimik katalog va atlas yaratish	237
B.E. Kilichev, M.Sh. Isomiddinova	G'ijduvon tumanining tarixiy toponimlari	239
G.I. Toirova	“Ufq” romanidagi psixolingvistik tafvutlar	241
Г.А.Астанов	“Минг бир кеча” асари: жаҳон адабиёти ва маданиятидаги ўрни	243
M.A. Xudoyqulova	O'zbek tanqidchiligida adabiy bahslarning kompozitsion qurilishi	245
M.Sh. Shirinova	Issues of speech culture in broadcast media	247
N.S. Qodirova	Mustaqillik davri tanqidchiligida uslub yangilanishi (Qodiriyshunoslik misolida)	249
D.R. Sobirova	The anthropocentric paradigm in linguistics and the role of cognitive linguistics within it	251
M.Y. Xojiyeva, Sh.E. Amonova	Tilshunoslikda antroponimik terminlar	253
Ғ.Н. Зикриллаев, Я.Б. Рўзиев	Диалектик материализм ва тилшунослик методологияси	254
M.M. Rakhmatova, J.A. Rakhmonova	Implicature analysis in recent Donald Trump conversations	261
G.Y. Samandarova	O'zbek tilida son komponentli maqollarning tarixiy ildizlari va shakllanish bosqichlari	263
D.Y. Yusupova	So'zning ko'chma ma'noda qo'llanishi	266
S. Mardonova	O'zbek tili elektron lug'atlaridan foydalanishning bugungi kundagi ahamiyati	270
N.A. Nazarova	O'zbek antroponimikasiga lingvistik yondashuv	272
R.O. Bobokalonov	Onomastics in French and Uzbek medical language	273
N.K. Abbasova, M.Abdualiyeva	National imagery in English proverbs and its reflection in Shakespearean tragedies	278
Sh.D. Abdullayev, O.I. Abdullayev	O'zbek va Qoraqalpog' tillarida yangi ijtimoiy-siyosiy leksikaning lingvomadaniy tahlili	282
M.Sh. Abdurahimova	Nabi Jaloliddin ijodida urush mavzusi	286
O.I. Adizova	Bolalar o'yinlari orqali adabiyotni o'qitishda lingvomadaniy yondashuvni tatbiq etish	288
R.Sh. Akhmedov	The phenomenon of ideological threats in modern society reflected in asimov's science fiction	291
J.A.Akhrorova	Metonymy as a means of forming new meanings of a word	295
I.I. Akramov	Bilingualism in the Bukhara region and its effects on the language system	296
Н.Е. Алламуратов	О заимствованной юридической лексике в каракалпакском языке	298